QORAQALPOG‘ISTONING QIZILQUM CHO‘LI “BELTOG‘” HUDUDIDA AYRIM SUDRALIB YURUVCHILARNING TARQALISHI

РАСПРОСТРАНЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ПРЕСМЫКАЮЩИХСЯ В КЫЗЫЛКУМСКОЙ ПУСТЫНЕ КАРАКАЛПАКСТАНА НА ТЕРРИТОРИИ "БЕЛТАУ"

DISTRIBUTION OF CERTAIN REPTILES IN THE "BELTAU" AREA OF THE KYZYLKUM DESERT OF KARAKALPAKSTAN

***Berdanov.D.T*[1]**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

***Берданов Д.Т*[1]**

Базовый докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

***Berdanov.D.T*[1]**

Doctoral student at the Berdakh Karakalpak State University

***Annotatsiya**: Qoraqalpog‘iston Qizilqum cho‘lining “Beltog‘” hududida 2026-yil 28-may kuni 34,91 km uzunlikdagi GPS-transekt bo‘ylab ayrim sudralib yuruvchilarning uchrashishi o‘rganildi. Kuzatuv davomida 7 turga mansub jami 277 ta individ qayd etildi. Eng ko‘p Qum to‘garakboshi — 83 ta (2,38 individ/km), eng kam To‘r kaltakesakcha — 18 ta (0,52 individ/km) qayd etildi. Umumiy uchrash ko‘rsatkichi 7,93 individ/km bo‘ldi. Kuzatuv kengligi va aniqlanish ehtimoli to‘liq standartlashtirilmaganligi sababli natijalar individ/km² emas, transekt bo‘yicha uchrash ko‘rsatkichi sifatida ifodalandi.*

***Kalit so‘zlar**:Qizilqum, Beltog‘, sudralib yuruvchilar, transekt, GPS, uchrash ko‘rsatkichi, gerpetofauna.*

***Аннотация:** 28 мая 2026 года в районе "Белтог" пустыни Кызылкум Каракалпакстана была изучена встреча отдельных пресмыкающихся вдоль*

GPS-трансекта протяженностью 34,91 км. Всего в ходе наблюдения было зарегистрировано 277 особей, относящихся к 7 видам. Наибольшее количество отмечено песчаной круглоголовки — 83 особи (2,38 особи/км), наименьшее — сетчатой ящерицы — 18 особей (0,52 особи/км). Общий показатель встречаемости составил 7,93 особей/км. Из-за того, что ширина наблюдения и вероятность обнаружения не были полностью стандартизированы, результаты были выражены как показатель встречаемости по трансекту, а не по индивидам/км2.

Ключевые слова: *Кызылкум, Бельтау, пресмыкающиеся, трансект, GPS, индекс встречаемости, герпетофауна.*

Abstract: *On May 28, 2026, in the "Beltag" area of the Kyzylkum Desert of Karakalpakstan, a meeting of certain reptiles was studied along a 34.91 km long GPS trance. A total of 277 individuals belonging to 7 species were recorded during the observation. The highest number of sand lampreys was recorded at 83 individuals (2.38 individuals/km), and the lowest at 18 individuals (0.52 individuals/km). The total population density was 7.93 individuals/km2. Since the observation range and detection probability were not fully standardized, the results were expressed as a prevalence indicator for the trancect, rather than for individuals/km2.*

Keywords: *Kyzylkum, Beltau, reptiles, transect, GPS, occurrence index, herpetofauna.*

Kirish

Qizilqum cho‘lining cho‘l landshaftlari sudralib yuruvchilarning turli ekologik guruhlari uchun yashash muhiti hisoblanadi. Ularning hududiy tarqalishini dala kuzatuvlari asosida baholash cho‘l ekotizimlarining biologik xilma-xilligini o‘rganishda muhimdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi “Beltog‘” hududida bitta GPS-transekt bo‘ylab qayd etilgan ayrim sudralib yuruvchilarning uchrash ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqot 2026-yil 28-may kuni olib borildi. GPS ma’lumotlari bo‘yicha transekt uzunligi 34,91 km. Kuzatuvchi yo‘nalishning ikki tomonida taxminan 3–4 m masofagacha ko‘rish imkoniga ega bo‘lgan. Har bir uchragan individ qayd etilib, turning umumiy soni hisoblandi. Uchrash ko‘rsatkichi U=N/L formulasi bilan aniqlandi. Kuzatuv kengligi aniq standartlashtirilmaganligi sababli mutlaq maydon zichligi hisoblanmadi.

Natijalar

№	Tur	Qayd etilgan individlar	Uchrash ko‘rsatkichi (individ/km)	Ulushi, %
1	Qum to‘garakboshi (Phrynocephalus interscapularis L., 1856)	83	2.38	29.96
2	Tez kaltakesakcha (Eremias velox P.,1771)	44	1.26	15.88
3	Dasht agamasi (Agama sanguinolenta P., 1814)	39	1.12	14.08
4	Chiziqli kaltakesakcha (Eremias lineolata N., 1896)	38	1.09	13.72
5	Targ‘il kaltakesakcha (Eremias scripta S.,1867)	30	0.86	10.83
6	O‘rta Osiyo cho‘l toshbaqasi (Agrionemys (Testudo), horsfieldi (Gray, 1844))	25	0.72	9.03
7	To‘r kaltakesakcha (Eremias grammica L., 1823)	18	0.52	6.50
	Jami:	**277**	**7.93**	**100.00**

Natijalarga ko‘ra, Qum to‘garakboshi 2,38 individ/km bilan eng yuqori, To‘r kaltakesakcha esa 0,52 individ/km bilan eng past uchrash ko‘rsatkichini berdi. Qayd etilgan individlarning 29,96 foizi Qum to‘garakboshiga, 15,88 foizi Tez kaltakesakchaga, 14,08 foizi Dasht agamasiga, 13,72 foizi Chiziqli

kaltakesakchaga, 10,83 foizi Targ‘il kaltakesakchaga, 9,03 foizi O‘rta Osiyo cho‘l toshbaqasiga va 6,50 foizi To‘r kaltakesakchaga to‘g‘ri keldi.

Xulosa

“Beltog‘” hududida 34,91 km transekt bo‘ylab 7 turga mansub 277 ta individ qayd etildi. Natijalar turlar o‘rtasida uchrashish chastotasi bo‘yicha farq borligini ko‘rsatdi. Mazkur ma’lumotlar mahalliy va dastlabki kuzatuv natijasi hisoblanadi. Hudud bo‘yicha ishonchliroq ekologik xulosa olish uchun kelgusida bir nechta standartlashtirilgan transektlarni turli fasllarda takrorlash, kuzatuv masofasini aniq qayd etish va aniqlanish ehtimolini hisobga olish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanov M.A.,Asenov G.A.,Bekbergenova Z.O., Qoshanov D E., Qaraqalpaqstannıń haywanat dúnyası Nókis .2020. 70,91-105

2.Berdanov D. T, Seytnazarov S. K, Jiyemuratov M. O. «QORAQALPOQSTON HUDIDAGI QIZILQUM CHO‘LI GERPETOFAUNASI TUR TARKIBI VA BIOEKOLOGIYASI» International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health. Hosted online from Jakarta, Indonesia. Website: econfseries.com 30th June, 2025

3.Seytnazarov S.K., Berdanov D.T.,“SPECIES COMPOSITION AND BIOECOLOGY OF REPTILES DISTRIBUTED IN THE SOUTHERN DESERT ZONES OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN” *Science and Education in Karakalpakstan. 2025 №3/2 ISSN 2181-9203*

4. Rakhimov B.A., Matkarimova G.T. Gerpetologik monitoring asoslari. Samarqand: Zarafshon, 2017. -96 b.

5. Барабаш-Никифоров И.И. Методика полевых герпетологических исследований. Москва: Наука, 1986. — 127 с.